



TURIZM SOHASINI HUQUQIY TAKOMILLASHUVI

Tillayev Rustamjon Abdumutalibovich

Bosh prokuratura xuzuridagi huquqni muhofaza qilish akademiyasi 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada mamlakatimiz iqtisodini yuqori darajaga ko'taruvchi, axoli turmush darajasini yuksaltiruvchi turizm sohasini tartibga soluvchi qonunchilik taraqqiyoti yoritilgan

Kalit so'zlar: Konstitutsiya, strategiyasi, huquq, mamlakat, taraqqiyot, asos, yo'nalish, turizm, rivoj, sharoit, sayyoh, istiqbol, iqtisod, qonun.

Аннотация В этой статье рассматривается развитие законодательства, регулирующего сферу туризма, которая поднимает экономику нашей страны на более высокий уровень и повышает уровень жизни населения

Ключевые слова: Конституция, стратегия, Право, страна, прогресс, основа, направление, туризм, развитие, условия, турист, перспектива, экономика, право

Annotation This article highlights the legislative progress of our country, which raises the economy to a higher level, which regulates tourism in the field of improving the standard of living.

Keywords: Constitution, strategy, law, Country, Development, Foundation, direction, tourism, development, conditions, tourist, perspective, economy, law

Turizm sohasi insoniyatni olamga, tarixiy joylarga, tabiatning jozibador manzillariga intilishi hisoblanib, insonlar doim boshqa mamlakatlar, diyorlarga borish, dunyoni ko'rish istagi bilan yashaganlar.

Shu bilan birga insoniyat tinchligi, daxlsizligini ta'minlash, jamiyat osoyishtaligi, davlat xavfsizligi masalalari har bir davlatdan sohani tartibga soluvchi normalar belgilash va bu normalarni bajarilishini nazorat qilishni talab etadi. Jumladan mamlakatimiz mustaqillikka erishishi jarayonida barcha sohalaridagi kabi turizm sohasini tartibga soluvchi normalarga ham extiyoj sezdi.

Turistlar va turistik faoliyat sub'yektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish maqsadida qonunchilik takomillashtirildi.

1999- yil 15-aprelda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «2005-yilgacha bo'lgan davrda O'zbekistonda turizmni rivojlantirish davlat dasturi to'g'risida»gi Farmoni e'lon qilindi, va 20-avgustida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan «Turizm to'g'risida» gi Qonun qabul qilindi. Bu hujjatlar sohani rivojlantirishda muhim omil bo'ldi.

Buning asosida turizm sohasidagi bozor munosabatlari uzil-kesil yo'lga qo'yildi hamda xalqaro bozorda raqobatbardosh turistik mahsulot yaratila boshlandi, turizm



tizimini boshqarishning markazlashtirilishiga chek qo'yildi. Ko'pchilik turistik obyektlar o'zlarini mustaqil ravishda boshqara boshladi, xizmatlar bozorida raqobatlasha olmaydigan korxonalar yopilib, ular o'miga samarali ishlovchi yangi xususiy korxonalar tashkil etildi.

2000-yildan boshlab, respublikamiz turizm sohasi yuqori sur'atlar bilan rivojlana boshladi. Turizm sohasidan olinayotgan daromadlar yiliga 20 va undan ortiq foizlarda o'sa boshladi

Huquqiy normalar mamlakatimizni bosqichma-bosqich rivojlanishiga va turizm sohasini takomillashuviga hizmat qildi, jumladan:

– O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 2-iyuldagi "O'zbekistonda turizm sohasi uchun kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 324-sonli qarori;

– O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2005-yil 10-martdagi "O'zbekiston Respublikasida turizmni rivojlantirishning ayrim masalalari to'g'risida"gi 53-sonli qarori;

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning 2016-yil 2-dekabrda "O'zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi qabul qilgan Farmoni tarixiy ahamiyatga ega bo'lib, iqtisodiyotda birinchi marotaba turizm sohasiga strategik sektor maqomi berildi.

– O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 15-martdagi "O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini yanada qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 137-sonli qarori;

– O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 19-oktyabrda "Toshkent viloyati hokimligi huzuridagi turizmni rivojlantirish departamenti faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi 852-sonli qarori;

– O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining 2017-yil 24-noyabrda "Ijtimoiy va iqtisodiy qonunchilik ijrosi ustidan prokuror nazoratini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi 166-sonli buyrug'i turizm sohasidagi qonunchilik ijrosini nazorat qilish asosi hisoblanadi.

–

– O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 6-fevralda "O'zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasining faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3510-sonli Qarori;

– O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 7-fevralda "Ichki turizmni jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3514-sonli Qarori;

– O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 28-iyunda "Ipak yo'li" turizm xalqaro universitetini tashkil etish to'g'risida"gi PQ-3815-sonli Qarori;

– O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-yanvarda "Turizm tarmog'ini jadal rivojlantirishga oid chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4095-son Qarori;



– O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 17-sentyabrdagi "Bo'stonliq tumanidagi bo'sh turgan, foydalanilmayotgan hamda samarasiz foydalanilayotgan obyektlar va yer uchastkalaridan samarali foydalanish, ular negizida turizm va xizmat ko'rsatish infratuzilmasini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 560-sonli qarori;

– Vazirlar Mahkamasining "Oilaviy mehmon uylari faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi 631-sonli, 10.07.2020-yilgi "O'zbekiston Respublikasida Turizm sohasini tiklash va rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 433-sonli qarorlari, "O'zbekiston Respublikasida xostellar faoliyatini tashkil etish tartibi to'g'risidagi" Nizom;

– O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 24-fevraldagi "Ichki va ziyorat turizmini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 100-sonli qarori;

– O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-apreldagi "Turizm va sport vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi PQ-5054-sonli Qarori;

– O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 27-yanvardagi "Xizmatlar sohasini rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 104-sonli Qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 11-maydagi "Xizmatlar sohasini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5113-son qarorining qabul qilinishi;

– O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 07.04.2021-yilda qabul qilingan "Turizm, sport va madaniy meros sohaslarida davlat boshqaruvi tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6199-sonli Farmoni bilan Bosh prokuratura tuzilmasida Turizm, sport, madaniyat va madaniy meros sohasida qonunchilik ijrosi ustidan nazorat boshqarmasi tashkil etilganligi soha uchun ulkan huquqiy asosni yaratdi desak, mubolag'a bo'lmaydi.

2019-yilning 18-iyulida O'zbekiston Respublikasining "Turizm to'g'risida"gi Qonuni qabul qilindi. Ushbu qonun soha uchun ancha qimmatli hisoblanib, ko'plab atamalarga ta'rif beradi. Xususan, ushbu qonunga ko'ra turizm — jismoniy shaxsning vaqtincha bo'lish mamlakatidagi (joyidagi) manbalardan daromad olish bilan bog'liq bo'lgan faoliyat bilan shug'ullanmagan holda doimiy yashash joyidan jo'nab ketishi (sayohat qilishi) deya ta'riflanadi

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2020-yil 25-yanvardagi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga yo'llagan Murojaatnomasida tadbirkorlar hanuzgacha yer ajratish, kadastr, qurilish, litsenziya, bojxona, bank, davlat xaridlari kabi sohalarda korrupsiyaga duch kelayotganini, korrupsiyaga qarshi kurashishda aholining barcha qatlamlari, eng yaxshi mutaxassislar jalb qilinmas ekan, jamiyatimizning barcha a'zolari, ta'bir joiz bo'lsa, "halollik vaksinasi" bilan emlanmas ekan, o'z oldimizga qo'ygan yuksak marralarga erisha olmasligimizni, korrupsiyaning



oqibatlar bilan kurashishdan uning barvaqt oldini olishga o'tishimiz lozimligini aytib o'tganlar⁷³.

2023-yil 30-aprelda o'tkazilgan referendumda umumxalq ovoz berish orqali O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi qabul qilinganligi Yangi O'zbekistonni barpo etishning konstitutsiyaviy asoslarini mustahkamlashga xizmat qildi. Shu bilan birga, yangilangan konstitutsiyaviy-huquqiy sharoitlarda mamlakatimiz taraqqiyotining asosiy yo'nalishlarini takomillashtirish va amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlarni yangi bosqichga olib chiqish talab etilmoqda. O'zbekistonni shiddat bilan rivojlantirishning sinalgan usuli sifatida uzoq yillik strategiyalardan foydalanish islohotlarning oqilona va xalqchil ekanligining isboti bo'lib kelmoqda.

Fikrimizning dalili sifatida "O'zbekiston – 2030" strategiyasiga nazar tashlasak, undagi maqsadlar xalq va davlat manfaatlariga naqadar mosligini ko'rish mumkin.

Xususan, mazkur strategiyaning maqsadlaridan biri, ya'ni 58-maqsadning O'zbekistonda tashqi va ichki turizmni rivojlantirish uchun keng sharoitlar yaratish orqali sayyohlar sonini oshirishga qaratilganligi turizmning yaqin istiqbolda iqtisodiyotimizning asosiy sohalaridan bo'lishi xususida olg'a surgan fikrlarimizning asosli isboti hisoblanadi.

Undan avval esa 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot Strategiyasining 35-maqsadida⁷⁴ "O'zbekiston bo'ylab sayohat qiling" dasturi doirasida mahalliy sayyohlar sonini 12 million nafardan oshirish hamda respublikaga tashrif buyuradigan xorijiy turistlar sonini 9 million nafarga yetkazish belgilangan edi. O'zbekiston bo'ylab sayohat qil" dasturining amalga oshirilishi mamlakatda sayyohlik madaniyatining rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi.

Mamlakatda ichki sayyohlarning umumiy soni 2016-yildagi 8,8 milliondan 2019-yilda 14,7 millionga, 2021-yilda esa 15 milliondan oshgan. So'nggi 4 yil ichida O'zbekistonda 833 ta yangi mehmonxonalar: yirik, o'rta va kichik mehmonxonalar foydalanishga topshirilgan. Joylashtirish fondlarining umumiy soni 1442 taga yetgan. Bunda xonalar soni — 33,4 ming donani tashkil etayotgan bo'lsa, undagi o'rinlar — 71,2 taga yetkazilgan. Ayni paytda O'zbekistonda yuzlab yangi mehmonxona loyihalari barpo etilmoqda, ular yaqin kelajakda foydalanishga topshirilishi rejalashtirilgan. O'zbekistonda turizm salohiyatini oshirish bo'yicha yangi tizim joriy qilindi. Jumladan, har bir viloyatning «tashrif qog'ozi» ishlab chiqildi, turistik mavsum uzaytirildi, 2023-yil mamlakatning turistik salohiyatini jahonga targ'ib qilish yili bo'lib, bunga 100 mlrd so'm ajratildi.

2023-yilning 29-mart kuni Shavkat Mirziyoyev turizm salohiyatini rivojlantirish yuzasidan o'tkazgan videoselektorda xorijiy sayyohlarning O'zbekistonda bir kun ko'proq qolishi yillik turizm eksportini 300 million dollarga oshirishi ta'kidlab o'tildi.

⁷³ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga yo'llagan Murojaatnomasi. 2020 yil 25 yanvar.Xalq so'zi gazetasi.

⁷⁴ <https://lex.uz/docs/-6600413>



Bu misollar shunchaki raqamlar bo'libgina qolmay, mamlakat iqtisodiyotining ajralmas asosi bo'lgan turizm sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning nechog'lik o'rinli ekanligining ko'rsatkichi bo'lib xizmat qiladi. Bu natijalar o'z o'rnida davlat idoralari qatorida, prokuratura organlariga ulkan mas'uliyat yuklaydi.

Turizm tashkil etilayotgan turning o'ziga xosligi, mavzusi, davomiyligi, harakatlanish usullari va turning boshqa xususiyatlaridan kelib chiqqan holda madaniy-tarixiy, ziyorat, ekologik, ma'rifiy, etnografik, gastronomik, ishbilarmonlik, ijtimoiy, sport, tibbiy, yoshlar turizmi, agroturizm hamda turizmning boshqa turlariga bo'linishi mumkin va bu sohalar bo'yicha qonunchilikni takomillashtirish vazifasini amalga oshirish talab etiladi.

O'zbekiston va boshqa mamlakatlarda turizm sohasidagi qonun hujjatlarining bajarilishi ustidan prokuror nazorati fuqarolarning huquqlarini himoya qilish va sohada qonun ustuvorligini ta'minlashga qaratilgan huquqni muhofaza qilish faoliyatining muhim yo'nalishi hisoblanadi. O'zbekistonda prokuratura turistik tashkilotlar faoliyatini tartibga soluvchi, iste'molchilar huquqlarini himoya qiluvchi va jinoyatchilikning oldini oluvchi qonunlarga rioya etilishini nazorat qiladi.

Mamlakatimizda turizm sohasida amalga oshiriladigan hujjatlar ijosoni ta'minlashda prokuratura irgani qonunchilik tashabbuskori sifatida, qonunchilik ijrosini ta'minlash bo'yicha nazorat organi sifatida takliflar, tashabbuslar asoschilaridan bo'lib qoladi

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga yo'llagan Murojaatnomasi. 2020 yil 25 yanvar.Xalq so'zi gazetasi.

2.Chuboyeva O. Oila ma'naviyati-jamiyat taraqqiyoti omili. So'nggi ilmiy tadqiqotlar nazariyasi. 7-jild 10-son Respublika ilmiy-uslubiy jurnali 13.10.2024. 106-112

3.Chuboyeva O. Nikoh munosabatlarida milliylik va qonun normalarining amal qilishi. So'nggi ilmiy tadqiqotlar nazariyasi. Respublika ilmiy-uslubiy jurnali. 13-mart, 2024-yil 7-jild 3-son. 131-135

4. <https://lex.uz/docs/-6600413>